

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTINING NUKUS FILIALIDA SANKT-  
PETERBURG DAVLAT PEDIATRIYA TIBBIYOT UNIVERSITETI VA KORYO  
UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIKDA XALQARO FAKULTETNI TASHKIL ETISH  
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son **qaroriga** muvofiq hamda tibbiyot oliy ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xamkorlikda fakultetlar tashkil etish va yuqori malakali, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filialida Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti bilan hamkorlikda magistratura va klinik ordinatura ta’lim yo‘nalishlarida xalqaro fakultet (keyingi o‘rinlarda fakultet deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar fakultetning asosiy vazifalari etib belgilansin:

respublika iqtisodiyotining real sektori tarmog‘i uchun muhim ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qodir bo‘lgan tor doiradagi yuqori malakali mutaxassislarni, ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlarni magistratura va klinik ordinatura ta’lim yo‘nalishlarida xalqaro standartlar darajasida tayyorlash;

Orolbo‘yi mintaqasidagi kasalliklarning barvaqt profilaktikasi, yuqori texnologiyali davolash usullarini qo‘llash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va atrof muhitning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganish sohasida yuqori texnologiyalarga asoslangan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish;

mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviyligi hamda uzluksizligi, shuningdek, jahon ta’lim va ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashish asosida rivojlantirish;

ta’lim va ilmiy-texnik sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish tarmoqlari va biznes-hamjamiyatlar bilan uzoq muddatli aloqalar o‘rnatish.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

fakultet kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda ta’limning asosiy mutaxassisliklari bo‘yicha magistr, tayanch doktorant (PhD) va klinik ordinatorlar, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filialining (keyingi o‘rinlarda filial deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi;

fakultetda talabalarni o‘qitish to‘lov-kontrakt asosida rus va ingliz tillarida, kunduzgi ta’lim shaklida O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari talablari inobatga olingan holda Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universitetida qabul qilingan ta’lim standartlari, o‘quv rejaları va dasturlari asosida amalga oshiriladi;

fakultetning magistratura va klinik ordinatura ta’lim yo‘nalishlariga qabul kvotasi mavjud talab va ehtiyojdan kelib chiqib, Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishuv asosida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi;

fakultetga talabalikka qabul qilish tartibi, to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati hamda mahalliy va xorijiy professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash miqdorlari Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishuv asosida belgilanadi;

fakultet bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasida hamda Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universitetida oliy ta‘lim to‘g‘risidagi hujjat sifatida tan olinadigan, o‘zaro kelishuv asosida belgilangan namunadagi diplom beriladi;

fakultet faoliyatini moliyalashtirish filialga talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, tegishli shartnomalar asosida manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan grantlar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda hamda Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti bilan kelishgan holda 2019-yil 1-sentabrga qadar:

fakultetga filial hududidagi binolardan mos joy ajratish;

Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Koryo universiteti bilan hamkorlikda magistratura va klinik ordinatura ta‘lim yo‘nalishlarida o‘quv dasturlarini tasdiqlash;

fakultetda faoliyat olib boradigan professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar tarkibini yuqori malakali mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagog kadrlar hisobidan to‘ldirish choralarini ko‘rsin.

5. Belgilansinki, fakultetning boshlang‘ich faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida unga ajratilgan bino va inshootlarni joriy ta‘mirlash va jihozlash (mebel, kompyuter texnikasi, o‘quv adabiyotlari va boshqa moddiy-texnika vositalari xarid qilish) ishlari uchun filialning budjetdan tashqari mablag‘laridan foydalaniladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligining buyurtmalariga binoan ushbu qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilingan xorijiy professor-o‘qituvchilar va ma‘muriy xodimlar uchun kirish vizalari konsullik yig‘imlari hamda boshqa yig‘imlar undirilmagan, zarur hollarda Toshkent shahridagi I. Karimov nomidagi xalqaro aeroportda rasmiylashtirilishini ta‘minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov va O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri A.K. Shadmanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 26-mart,  
253-son

*(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.03.2019-y., 09/19/253/2842-son)*